

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Tokzorlarda asosiy zararkunanda va kasalliklariga qarshi mikrobiologik preparatlarni qo‘llash va yetishtiriladigan mahsulot sifatini oshirish tizimini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - tokzorlarni zararkunandalar va kasalliklardan biologik vositalar, biostimulyatorlar qo‘llagan holda himoya qilish jarayonlari o‘rganiladi hamda yangi tizimlar ishlab chiqiladi; - tokzorlardagi kasallik va zararkunandalar tur tarkibi o‘rganiladi. - jahon va mahalliy tajribalariga asosan yangi turdagi biologik preparatlarni qo‘llash bo‘yicha tajribalar o‘tkaziladi; - yetishtirilayotgan uzum mahsulotlarning tarkibidagi zararli organizmlarni biologik preparatlar bilan kamaytirilish hamda ekologik toza mahsulotlarni chet elga eksport qilish darajasi oshiriladi; - qarshi kurash tizimini takomillashtirishda zamonaviy innovatsion usullar yordamida amalga oshiriladi. Zamonaviy innovatsion usullarni qo‘llash natijasida insonlar va issiqqonli hayvonlarni zararanish xavfi kamaytiriladi. Zararli organizmlarga qarshi kurashning agrotexnik, biologik va mikrobiologik vositalardan foydalanish usulari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.